

Musurmonova Dildora Ikrom qizi

Termiz davlat universiteti 1-bosqich magistranti

dildora_musurmonova@mail.ru

+998900091401

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek tilida qiyoslashning, xususan, sof qiyosning ifodalanishi, uning tildagi ahamiyati, qiyosning shakllari va turlari misollar yordamida o'rganilgan. Shu bilan birgalikda, sof qiyosning namunalari o'zbek yozuvchilari asarlaridan parchalar misolida tahlil qilinib, fikr-mulohazalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *qiyos, sof qiyos, eksplitsit, implitsit, qiyos etaloni.*

Annotation. *In this article, the expression of comparison in the Uzbek language, in particular, pure comparison, its importance in the language, forms and types of comparison are studied with the help of examples. At the same time, examples of pure comparison are analyzed on the example of excerpts from the works of Uzbek writers, and opinions are given.*

Key words: *comparison, pure comparison, explicit, implicit.*

Qiyos – falsafiy tushuncha bo'lib, o'zbek tilshunosligida hali maxsus alohida o'rganilmagan. Bu so'zning lug'aviy ma'nosi – “o'zaro chog'ishtirish”, “solishtirish”, “taqqoslash”. Qiyoslash orqali ma'lum shaxs, predmet yoki voqea-hodisa o'rtasidagi muayyan belgilar bir-biriga taqqoslanadi, ular orasidagi farqlar ortiq yoki kamligi, o'xshashligi ilmiy asosda o'rganiladi. Qiyosning vujudga kelishidagi asosiy omil predmetning qanday xususiyatlarga ega ekanligini aniqlashdir. Obyektning o'ziga xos belgilari aniqlab olingach, u boshqa shunday obyektning belgilari bilan qiyoslanadi, o'xshash va farqli tomonlari ajratiladi va so'ngida xulosalar umumlashtiriladi. Qiyos kishining obyektiv borliqni mantiqiy asosda his etishi, narsa-predmet, voqea-hodisalar orasidagi o'xshash va noo'xshashliklarni aniqlashi asosida yangicha usullar, yo'llar orqali o'zi anglagan, his etgan narsalarni, voqealarni talqin qilishi asosida namoyon bo'ladi.[1] Qiyos bilimlarning shakllanishi va rivojlanishida alohida bosqich hisoblanadi. Olamning manzarasini, voqea-hodisalarni o'rganishda, ularning mohiyatini ochishda ularning turli belgilarini qiyoslash alohida o'ringa ega usul sanaladi. Bundan kelib chiqadiki, insonning bilish faoliyatida qiyosning muhim o'rni bor. “Taqqoslash bir narsa yoki hodisaning ikkinchi bir narsa yoki hodisadan farqli va o'xshash tomonlarini hamda ularning munosabatlarini o'rganish usuli hisoblanishi mutaxassislar tomonidan ta'kidlangan” [1].

Prof. A.Nurmonov qiyos haqida fikr yuritir ekan, qiyosning bilish va bilingan narsa, hodisani ta'riflash jarayonidagi o'rnini shunday izohlaydi: “Olamni bilishda o'rganilayotgan obyektning qiyoslash katta rol o'ynaydi. Oldin o'rganilgan obyektning yangi o'rganilayotgan obyektga qiyoslash bilishning eng asosiy usullaridan biridir. Qiyoslash natijasida qiyoslanayotgan obyektlarning umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlanadi” [1].

Sof qiyos qiyosning oddiy shakli bo'lib, nutqiy vazifasi nuqtai nazaridan nominativlik, axborot beruvchilik xarakterida bo'lsa-da, muayyan belgining boshqasiga nisbatan qanday darajada ekanligini ifodalanishi uning mohiyatini belgilaydi va tilning ifoda tizimida o'ziga xos usul ekanligini ko'rsatadi. Ikki narsa-hodisani qiyoslash ularning biri orqali ikkinchisini izohlash maqsadida vujudga keladi. Agar ikki predmet yoki tushuncha ular o'rtasidagi farqni ko'rsatish maqsadida qiyoslangan bo'lsa, sof qiyosiy konstruktsiya

shakllanadi, qiyoslash-o'xshatish maqsadni ko'zda tutganda esa o'xshatish konstruksiya shakllanadi. Bu fikr qiyos va o'xshatish konstruksiyalar bir-biri bilan bog'liq bo'lsa-da, ular mohiyat jihatdan farqli ekanligini ko'rsatadi. Sof qiyosni o'rganar ekanmiz, avvalo uni o'xshatishdan farqlashimiz lozim. Nazariy adabiyotlarda o'xshatish, metafora, epitet, baho kabi hodisalar zamirida qiyos mavjud ekanligi qayd etilgan. O'xshatishda - *dek*, -*day* kabi strukturalardan foydalanilsa, sof qiyos esa - *dan*, -*dan ko'ra*, -*dan ortiq*, -*ga qaraganda*, -*roq* kabi strukturalar orqali shakllanadi: *Bu dunyoning o'zida rostdan ko'ra ko'ra yolg'on ko'proq bo'lsa, nima qilsin...* (O'.Hoshimov "Daftar hoshiyasidagi bitiklar").

O'zbek tilshunosligida qiyosiy konstruksiyalarning semantik-stilistik xususiyatlarini maxsus o'rgangan D.Xudayberganova qiyosning to'rt unsurli ekanligini qayd etib o'tgan. Bular: qiyos subyekti, qiyos etaloni, qiyos asosi va qiyos vositasidir. Bundan qiyos to'rt komponentdan iborat ekanligini xulosa qilishimiz mumkin. Va buni quyidagi misol orqali ko'rib chiqishimiz mumkin: *Yarim haqiqat hamisha chindan ko'ra yolg'onga yaqinroq turadi.* (O'.Hoshimov "Daftar hoshiyasidagi bitiklar"). Ushbu matndagi qiyos subyekti – *haqiqat*, qiyos etaloni – *chin*, qiyos asosi – *yaqinroq* va qiyosning formal ko'rsatkichi – *dan ko'ra* shaklidir. Bu qiyosiy konstruksiya matnda to'rt komponentning ifodalanishi nuqtai nazaridan to'liq shakllangan konstruksiyadir.

Qiyos komponentlarining matnda mavjud bo'lishiga ko'ra sof qiyoslar ikkiga bo'linadi: Eksplitsit qiyoslar va implitsit qiyoslar.

Eksplitsit qiyos - qiyos komponentlari matnda to'liq ifodalanadigan qiyoslar. *Implitsit qiyos* - qiyos komponentlari to'liq ifodalanmaydigan, yashirin qiyoslar. Qiyosiy ifodalarda qiyos komponentlari – qiyos subyekti, qiyos etaloni, qiyos asosi va qiyosning shakily ko'rsatkichi mavjud bo'lsa, struktural jihatdan qiyos to'liq ifodalangan bo'ladi. Masalan, *Qo'shni qishloqda tug'ilgan donishmanddan ko'ra o'z qishlog'imdan chiqqan telba afzal deyidiganlar jamiyat ildiziga tushgan qurtdir!* (O'.Hoshimov "Daftar hoshiyasidagi bitiklar"). Qiyosiy konstruksiyalarda qiyos komponentlaridan biri ifodalanmay qolsa, implitsit ifoda vujudga keladi. Ko'pincha qiyos etaloni payt bildiruvchi so'zlar orqali ifodalanganda, *implitsit ifoda* vujudga keladi. Prof. N.Mahmudov bunday ifodani implitsit ifoda ekanligini unda belgining muayyan vaqtda namoyon bo'lishi bilan boshqa vaqtdagisi qiyoslangan holda farq ko'rsatilishini ta'kidlaydi.[1] *Masalan, Shunda Tolibjon uning yurtini oldingidan ko'p sog'inayotganini sezdi.* (S.Ahmad. "Jimjitlik") Ushbu gapda qiyos asosidagi belgining darajasi oldin mavjud bo'lgan belgiga, ya'ni oldingi sog'inishlardan ortiq ekanligi asosida qiyoslangan. Qiyosiy qurilmalarning shu tipda shakllanishi badiiy matnlarda ko'p uchraydi va badiiy nutq talablari darajasidagi mohiyatni kasb eta oladi. Qiyosiy konstruksiyalarda qiyos subyekting implitsit holatda kelishi ko'p uchraydi. Masalan, *Yoshi senga yetsa, sendan aqlliroq bo'ladi* (O'.Hoshimov. "Dunyoning ishlari"). Qiyosiy konstruksiyalarda ba'zan qiyos asosi ifodalanmagan holatlar ham kuzatiladi.

Qiyosiy belgining qiyos komponentlaridan birida boshqasiga nisbatan ortiq yoki kamligiga ko'ra ikkiga bo'lish mumkin:

1. Qiyos belgisining qiyos etaloniga nisbatan qiyos subyektida ortiqqligini ifodalovchi qiyoslar.
2. Qiyos belgisining qiyos subyektinga nisbatan qiyos etalonida ortiqqligini ifodalovchi qiyoslar.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Qiyos muhim ifoda vositasi sifatida o'zbek tili nutq uslublarining barchasida foydalaniladi. Chunki har bir narsaning boshqa bir narsaga o'xshash yoki farqli tomonlari mavjud bo'lib, o'xshashlik va farqlanuvchi jihatlar narsa-predmetlarni

muayyan belgilarini qiyoslash natijasida oydinlashadi. Shunga ko'ra fanda qiyoslash tabiat va jamiyat hodisalarini, umuman, olamni bilishning eng muhim usuli sifatida ta'riflanadi. O'zbek tilshunosligida qiyos ifodalanishining turli usullari va vositalari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umurqulov Z. Badiiy matnda qiyos va uning lingvopoetik qimmati. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Termiz ,2020
2. Xudoyberganova D. O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2015.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli, beshinchi jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2008
4. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013.
5. <https://orifto.lib.uz/kutubxona/jurjoni>